

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

Nº
“____” ____ 2022 y.

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari prorektori
O.N.Bozorov
“____” ____ 2022 y.

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI
FANI
SILLABUSI**

Bilim sohasi: 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari.

Ta'lif sohasi: 710 000 – muhandislik ishi.

Ta'lif yo'nalishi: 60712500 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti).

Tuzuvchi:

Xujaqulov A.X. –“Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasи assistenti.

Taqrizchilar:

Maxmatqulov
N.I.

– QarMII “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Yusupov I.N.

– QarMII “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasи katta o‘qituvchisi.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasining 2022 yil “___” ____ dagi ___ son yig‘ilishida hamda “Muhandislik texnikasi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil “___” ____ dagi ___ son yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil “___” ____ dagi ___ son yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i _____ **Sh.R.Turdiyev**

**Muhandislik texnikasi fakulteti
uslubiy komissiya raisi:** _____ **E.U.Eshdavlatov**

Kafedra mudiri: _____ **R.A.Eshonqulov**

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani sillabusi

Fan/modul kodi HFXE 2204	O‘quv yili 2022-2023	Semestr(lar) 6	Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Hayot faoliyat xavfsizligi	60	60	120

O‘qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Ekologiya va mehnat muhofazasi		
O‘qituvchilar	F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma’ruzachi	Xujaqulov Abulaziz Xakim o‘g‘li	+998 33 950 60 70	abdulaziz_4261909@mail.ru
Amaliy mashg‘ulot	Xujamova Muhabbat Tog‘ay qizi	+998 90 887 19 93	xujamovamuhabbat@gmail.com
Laboratoriya	Shomuratov Baxrom Husanovich	+998 97 311 3521	Shomuratov743@gmail.com

I. Fanning mazmuni.

I. Fanning mazmuni

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘qitishdan maqsad – tabiiy va texnogen tavsifda kelib chiquvchi xavf va uning ta’siridan odamni muhofaza qilish uslublari hamda vositalarini o‘rgatish hisoblanadi. Hayot faoliyati xavfsizligi fanni o‘zlashtirish orqali talabalar xavfsizlikni ta’minlashning ilmiy asoslarini o‘rganadi va ular ishlab chiqarishda mehnat sharoitini yaxshilash va muammolarni ijobiy hal qilishga tayyorlanadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining vazifalari quyidagilar sanaladi:

1. Xavflarni identifikatsiyalash (aniqlash) – o‘rganilayotgan faoliyatda yuzaga kelgan xavflarni batafsil tahlil qilish.
2. Narxlarni imtiyozlar bilan taqqoslab odamlar va atrof-muhitni identifikatsiya qilingan xavflardan muayyan prinsiplar, usullar va vositalarga asoslangan himoyani belgilash, qo‘llash va bajarish.
3. Faoliyatdagi qoldiq xavflardan himoya qilish, chunki mutlaq xavfsizlikni ta’minlash mumkin emas: jarayonlarni o‘rganish va modellarini qurish xavflarni bashorat qilish, bartaraf etish; prinsiplarini, metodlari va vositalarini ishlab chiqish hamda qo‘llash.

4. Xodim va ishchining shikastlanishi yoki uni kasallikka olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni minimallashtirgan holda ishchiga shinamlik yaratish orqali mehnatning maksimal samarasiga erishish.

II. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;
- mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;
- ta’lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg‘otuvchi bo‘limlar bo‘yicha;
- ma’ruzalarini interfaol usulda o‘qitish yo‘li bilan;

-mustaqil ta’lim olish va ishslash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o‘zlashtiriladigan bilimlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me’yoriy hujjatlar bilan ishslashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg‘ulotlari paytida qabul qilingan ma’lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko‘rsatishi zarur.

Fanni o‘zlashtirishda masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

Nº	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1-modul: Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy, huquqiy va tibbiy-biologik asoslari			
1.	1-mavzu. “Hayot faoliyati xavfsizligi” faniga kirish. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari.	Asosiy tushunchalar. Faoliyat. Omil va xavflarning nomenklaturasi. Xavfli hodisalarning sabablari. Xavfli holatlar va xavfli hodisalar. Xavflarni tahlil qilishning metodik masalalari. Xavflar to‘g‘risidagi axborot manbalari. Xavflar to‘g‘risida axborot olish usullari. Jarohatlanganlik statistikasi profilaktikaning asosi sifatida.	2
2.	2-mavzu. Mehnat xavfsizligini huquqiy va tashkiliy asoslari	Mehnat va mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari va huquqiy me’yorlar. O‘n sakkiz yoshga to‘limgan ayollar va mehnatkashlarning mehnatini tartibga solishning o‘ziga xos tomonlari. Mehnat qonunlariga rioya qilishni nazorat qilish. Temir yo‘l transportida mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqaruvi. "O‘zbekiston temir yo‘llari" aksiyadorlik jamiyati xodimlarini mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitish.	2

		"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJda mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish. Kasbiy kasalliklarni aniqlash va tekshirish.	
3.	3-mavzu. Faoliyat xavfsizligini ta’minlashning ergonomika va psixologik asoslari	Faoliyat xavfsizligini ta’minlashning ergonomika asoslari asosiy prinsip va usullari. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Inson faoliyatini tashkil qilishning psixologik jihatlari. Ish joylarini estetik jihatdan jihozlash.	2
2-modul: “Inson-ishlab chiqarish muhiti” tizimida hayot faoliyati xavfsizligi			
4.	4-mavzu. Ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta’minlashda psixologiyani o’rni	Psixologik jarayonlar, xususiyatlari va holati. Ruhiy holatiing haddan ziyod zo‘riqish shakllari. Ishlab chiqarishdagi ruhiy holatlar. Guruhi psixologiyaning o‘ziga xosligi. Spirtli ichimliklarni inson ruhiyatiga ta’siri. Xavfli holatlar va ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarni kelib chiqishining psixologik sababları. Xatoliklarga yo‘l qo‘yilishda psixologik sabablar. Avariya holatlarida insonning hati-harakati. Kasbiy tanlov. Xavfsiz faoliyatni qo‘llab-quvvatlash.	2
5.	5-mavzu. Ishlab chiqarish muhitining zararli kimyoviy omillari	Ishlab chiqarishda kimyoviy zararli omillarni kelib chiqish manbalari. Kimyoviy zararli moddalarni toksik jihatdan insonga ta’siri yuzasidan tasniflash. Aerozollarni tasniflash. Aerozollarni inson tanasiga ta’siri. Sanoat changlari bilan kurashish choralar. Ish zonasidagi havoda zararli kimyoviy moddalar tarkibini nazorat qilish. Kimyoviy moddalarning zararli ta’siridan himoyalanish.	2
6.	6-mavzu. Xavfsiz faoliyatni tashkil qilishda xodimlar bilimini tekshirish va o’qitish	Ishlovchilarni faoliyat xavfsizligi talablariga amal qilishga o‘qitish va qayta tayyorlash tizimi. Xodimlarni o‘qitish va qayta tayyorlash ni tashkil qilish. Bilimlarni tekshirish va baholash tizimi samaradorligi.	2
7.	7-mavzu. Ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklari	Ishlab chiqarishda mehnat qobilyatini yo‘qotilishi. Faoliyat jarayonida sodir bo‘ladigan avariylar. Ishlab chiqarishda faoliyat jarayoni vaqtida yuzaga keladigan jarohatlanishlar va kasb kasalliklari. H-1 shakldagi dalolatnomani to’ldirish tartibi.	2
8.	8-mavzu. Ishlab chiqarishning sanitariyasi va gigiyenasi meyorlari, mazmuni	Texnosferada havo muhitining ko‘rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta’siri, ishlab chiqarish mikroiqlimining gigiyenik meyorlari, ularning inson organizmiga ta’siri. Ishlab chiqarishda mo‘tadil ob-havo sharoitini yaratish.	2
9.	9-mavzu. Ish zonasining havo	Meteorologik sharoitlar va ularning inson organizmiga ta’siri. Mikroiqlim parametrlari. Atamalar va ta’riflar.	2

	muhiti	Mikroqlim parametrlarini gigiyenik me'yorlash. Mikroqlimning optimal sharoitlari. Ruxsat berilgan mikroiqlim sharoitlari. Atrof muhitning issiqlik yoki indeksini aniqlash (IYuI-indeksini). Ish joyidagi havo haroratida ishlash vaqtি ruxsat etilgan qiymatdan yuqori yoki pastligi. va Mikroiqlimni o'lchash usullari va nazorat qilishni tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Zararli moddalarni inson organizmiga ta'siri. Sanoat ventilyatsiyasining maqsadi va tasnifi. Havoni mo'tadillash.	
10.	10-mavzu. Yoritilganlik	Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi ularning turlari. Umumiy va mahalliy shamollatishning mohiyati. Ishlab chiqarishda yoritish va uni meyorlari. Tabiiy va sun'iy yoritish. Yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigiyenik talablar. Yoritish vositalari va turlari.	2
11.	11-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash	Shovqin va titrash inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish sabablari va manbalari. Shovqin va titrashni tasniflash, muhofaza chora-tadbirlarini belgilash. Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri. Yuzaga kelish manbalari va sabablari. Himoyalanish vositalari.	2
.	3-modul: Transport tizimi nifrastrukturasi ob'ektlarida sanoat va mehnat xavfsizligi		
12	12-mavzu. Ob'ektlarning sanoat xavfsizligi	Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida ishlaydigan ishchilarni attestatsiyadan o'tkzish. Ishlab chiqarishda sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Xavfli yuklarni tashishda xavfsizlik. Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avariya va baxtsiz hodisalarini tekshirish. Yetkazilgan zarar uchun mas'uliyatni sug'urta qilish. Sanoat xavfsizligi talablarini buzganlik uchun javobgarlik. Avariya-qutqaruв xizmatlari va xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarida avariyalarni bartarf qilish bo'yicha tuzilmalar.	2
13.	13-mavzu. Elektr xavfsizligi asoslari	Elektr tokining inson tanasiga ta'siri. Inson tanasining elektr qarshiligi. Bir fazali va uch fazali tarmoqlarda tok o'tkazuvchi qismlarga tegishdagi xavf. Elektr quvvati oqimining yerga tegishdagi va qadam kuchlanishining xavfi. Elektr bilan harakatlanadigan sostavdagi elektr toki urishi manba'lari. Temir yo'l transportida elektr xavfsizligi tizimi.	2
	4-modul: Transport tizimlari infrastrukturasi ob'ektlarida yong'in xavfsizligi asoslari		
14.	14-mavzu. Transport tizimi bino va inshootlarida	Ish joylarida yong'inlarning sabablari. Yong'in xavfsizligi, yonish va portlash nazariyasi. Xavfli yong'in omillari va yong'in sharoitlari. Yong'inlar va sanoat ob'ektlarini yonish-portlatish bo'yicha tasnifi. Yong'in xavfsizligining	2

	yong‘in xavfsizligi	asosiy normativ hujjatlari. Yong‘inni oldini olish. Ishlab chiqarish ob’ektlarini yong‘indan himoya qilish. Sanoat bino va inshootlarida yong‘in xavfsizligi.	
5-modul: Inson mehnat faoliyati xavfsizligini iqtisodiy va ijtimoiy asoslari			
15.	15-mavzu. Ishlab chiqarishda jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish	Voqeal sodir bo‘lgan joyda o‘z xavfsizligiga rioya qilish. Jabrlanuvchini balandlikdan tushirish va uni tayanch asosi yoniga yotqizish. Jabrlanuvchiga yaqinlashish vaqtida yordam beruvchining dastlabki hatti-harakati. Biologik o‘lim belgisi aniqlanganda dastlabki sekundlarda yordam berish. Klinik o‘lim alomatlarini aniqlash.	2

Amaliy mashg‘ulotlar

Nº	Mavzular	soat
1	Baxtsiz hodisa va dalolatnoma tuzish.	2
2	Yo‘riqnomalar, 3-pog‘onali nazorat.	2
3	Tabiiy va sun’iy yoritilganlikni hisoblash.	2
4	Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.	2
5	O‘t o‘chiruvchi vositalarni o‘rganish.	2
6	Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari, ulardan foydalanish.	2
7	Ishlab chiqarish korxonalarida ajraladigan zaharli gazlar. Is gazi haqida tushuncha. Aholini is gazidan himoya qilish choralar.	2
8	Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish.	1
Jami:		15

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor- o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. SHuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlari

Nº	Mavzular	soat
1	Ish joylaridagi mikroiqlim sharoitlarini tadqiq qilish.	2
2	Ishlab chiqarish sexlaridagi chang konsentratsiyasini aniqlash.	2
3	Ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli moddalar miqdorini UG-2 gazoanalizatorida aniqlash.	2
4	Tabiiy va sun’iy yoritilganlikni tadqiq qilish.	2
5	Ishlab chiqarish korxonalarida shovqinni tadqiq qilish.	2
6	Transport sohasida titrashni tadqiq qilish	2
7	Yerga ulash tizimini tadqiq qilish va baholash	2
8	Elektr toki urganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish	1
Jami:		15

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta’lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o‘z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tayyorlash va h.k..

VI. Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- Xavf” HFX ning markaziy tushunchasi. Xavflar taksonomiyasi, kvantifikatsiyasi va identifikatsiyasi.
- Tavakkal. V.Marshall nazariyasi. Yashirin xavflar aksiomiyasi. Sistemali tahlil - xavfsizlikni ta’minalashning asosiy mezoni sifatida.
- Sabablar va xavflar shajarasи, tahlil usullari. Xavfsizlikni ta’minalash prinsiplari, usullari va vositalari.
 - Ergonomika asoslari. Xavfsizlikni boshqarish.
 - Odam tanasining analizatorlari: eshitish, ko‘rish, taktil, harorat, og‘riq, hid, ta’m bilish, sezgirlik va h.k.
 - Mehnat psixologiyasi asoslari kollektiv rahbarining shaxsiy xususiyatlari. Qo‘rquiv, jasorat, loqaydlik va h.k.
 - Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari. Nazorat qilish organlari. Javobgarlik turlari.
 - O‘zbekiston Respublikasining “Mehnat muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni.
 - O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi.
 - Mehnat muhofazasining tashkiliy asoslari.
 - Korxonalarda mehnat sharoitlarini tadqiq qilish. Yo‘riqnomalar turlari va ularni o‘tkazish tartibi.
 - Mehnat sharoitlarini tadqiq qilish.
 - Mehnat muhofazasi qonunlarini nazorat qilish.
 - Mehnat gigiyenasi va sanoat sanitariyasi.
 - Meteorologik va mikroiqlim sharoitlari. Termoregulyatsiya.
 - Sexlarni, shamollatish, konditsionerlash va isitish.
 - Zararli chiqindilarni so‘rib olish.
 - Changli havoni tozalash usullari va uskunalari. Sexdag‘i chang miqdorini aniqlash usullari.

- Sexlarni yoritish. Yorug‘likka qo‘yiladigan talablar. Tabiiy yorug‘lik. Sun’iy yorug‘lik.
 - Shovqindan himoyalanish. Shovqinga qarshi chora-tadbirlar.
 - Titrash xarakteristikasi. Titrashga qarshi kurash.
 - Ishchilarining mehnatini tashkil etishda ergonomik muammolar.
 - Elektr xavfsizligi. Elektrotexnik himoya vositalari va saqlovchi moslamalar.
 - Yashin qaytargichlar. Elektrostatik zaryadlardan himoyalanish.
 - Elektr harakat tarkiblariga xizmat ko‘rsatuvchi ishchilarning xavfsizligi.
 - Bosim ostida ishlovchi moslamalarni ishlatishda ishchilar xavfsizligi.
 - Ortish-tushirish ishlarida xavfsizlik chora-tadbirlari.
 - Yuqori tezlikdagi poyezdlar harakati mavjudligida bajariladigan ishlar xavfsizligi.
 - Yong‘in xavfsizligi.
 - Yong‘in xavfsizligini oldini olish.
 - Favqulodda vaziyatlar, ulavrning tasnifi va kelib chiqish sabablari.
 - O‘zbekiston Respublikasida “Fuqaro muhofazasini” roli va vazifalari.
 - Texnogen tusdagagi favqulodda vaziyatlar.
 - Korxonalardagi “Fuqaro muhofazasi” kuchlari va ularning vazifalari.
 - Zamonaviy qirg‘in qurollari.
 - Ommaviy qirg‘in qurollari.
 - Radiatsion holatni baholash.
 - Kimyoviy holatni baholash.
 - Biologik (bakteriologik) vaziyatga baho berish.
 - Radiatsion va kimyoviy razvedka priborlari va ularni ishlatish.
 - Xalqaro terrorizm va aholini muhofaza qilish.
 - Qutqaruva kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish.
 - Favqulodda vaziyatlarda o‘z-o‘ziga va bir-biriga yordam berish.
- Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
- Kurs ish (loyiha) lari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar
O‘quv rejada kurs ishini (loyihasi) ni bajarish ko‘zda tutilmagan.

VII. Fan o‘qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- O‘zbekiston Respublikasi hukumatining mehnatni muhofaza qilish masalalariga yechim topishi, mehnat muhofazasi qonunlari hamda huquqiy hujjatlar, kasbiy mutaxassisliklari bo‘yicha ilmiy printsiplarni tashkil etilishi va ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli faktorlar, ularni inson sog‘lig‘i, hayot faoliyati, hamda xavfsizligiga ta’sirini; ishlab chiqarishdagi xavfli va zararli omillarni me’yorlashtirish, ishlab chiqarish jarayonini xavfsiz ta’minlashni va ishlab chiqarish uskunalarini bilishi va ulardan foydalana olishi to‘g‘risida ***bilimga ega bo‘lishi;***

- mehnat muhofazasi qismida konstruktorlik va texnologik hujjatlar, ularning mazmuni, ishlab chiqarish tartibini, inshoatlarga qo‘yiladigan sanitarni-sanitar-texnik

talablarni, jarohatlanishdan ogohlantirish bo'yicha tadbirlarni, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish tadbirlarini to'g'ri tashkil etish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

- transport infratuzilmalarida mehnat muhofazasi, texnika va sanoat xavfsizligi hamda favqulodda holatlarda talab va me'yorlar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi kerak.***

VIII. Talabalar kreditlarni to'plash tartibi.

Fanda belgilangan o'qitish natijalariga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

IX. Talabalar reytingini belgilash tartibi.

Kreditlar ushbu dasturda belgilangan o'qitish natijalarini aks ettirgan xoldagina o'zlashtiriladi. Agar ta'lif oluvchi belgilangan natijalariga erisha olmasa, kreditlar o'zlashtirilmaydi. O'qitish natijalarini aks ettirgan talabaga o'zlashtirilgan kreditlari miqdori dastur elementiga berilgan kreditlari miqdoriga teng.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

YAkuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalgalash oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lif yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Mark A.Friend and James P. Kohn. Fundamentals of occupational safety and health. USA. 2007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992 y. «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini. Toshkent, 2016 y.
3. «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarни va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risida”gi Nizom. Toshkent, 1997 y.
4. Qudratov A., G’aniyev T., Yo’ldoshyev O’. va boshqalar. Hayotiy faoliyat xavfsizligi. T. 2012 yil.
5. Normatov Sh.N. Mehnat muhofazasi. O‘quv qo‘llanma. T.: ToshTYMI. 2005 y.
6. Tojiyev M., Nigmatov Y. Hayot faoliyati xavfsizligi. T. 2012 yil.
7. A.Q. Qudratov. Mehnat muhofazasi. Toshkent. 1995.
8. Terry Berro B., Rodriguez Salva A.A. Primary healthcare strategy in disaster situation // Gas. Sanit. – 2005. – Vol. 19, №1.
9. Gorban D.I., Xalilova R.X. Fuqaro muhofazasi. T. TTYMI. 2009 y.
10. Makkambayev P.A., Razikov R.S. Chrezvyichaynye situatsii i grajdanskaya zaščita na jeleznodoroznom transporte. T. 2018 g.
- 11 Tojiyev M. va boshq. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. T.:Universitet, 2002.
12. Nigmatov I., Tojiyev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi.,T.:Iqtisod moliya. 2011.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Kukin P.P. Lapin V.L., Ponamarev N.L. i dr. Bezopasnost texnologicheskix protsessov /Oxrama truda/. Uchebnoye posobiye dlya VUZov. M. Vysshaya shkola 2001 g.
2. E.A. Arustamov i dr. Bezopasnost jiznedeyatelnosti. Izdatelskiy dom «Dashkov» M. 2001 g.
3. G‘ipov X.E. Mehnat muhofazasi. T. «Mehnat» 2000 y.
4. Qudratov A.Q., Sosnovskiy Yu.S., Mirzalimov V.K., Uchebnoye posobiye po prakticheskim zanyatiyam kursa oxranы truda dlya bakalavrov vsex spetsialnostey TITLP. Tashkent. 2002 g.
5. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947 sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 1992 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagи “O‘zbekiston Respublikasida fravqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. I.Raxmonov va boshqalar “Favqulodda vaziyatlarda shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordami” T., Fan, 2000 y.
10. Radiatsion vaziyatni prognoz va razvedka usullari yordamida baholash. Uslubiy qo‘llanma. TTYMI, 2004 y.
11. Kimyoviy xavfli ob‘ektda va temir yo‘l transportida kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarni saqlash va tashish. Uslubiy qo‘llanma. TTYMI. 2011 y.

Axborot manbalari

1. Toshkent davlat transport universiteti www.tstu.uz
2. Rossiya transport universiteti www.miiit.ru
3. O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTV sayti www.edu.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi www.lex.uz

